

# "O'zkiyosanoat" AJ ishchi guruhi Dehqonobod tumanida

// 02 December 2025 yil

<https://pda.uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-ishchi-guruhi-dehqonobod-tumanida>



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-sentabrdagi "Aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazish to'g'risida"gi Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida "O'zkiyosanoat" AJ ishchi guruhi Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod tumanida bo'lib turibdi.

Ishchi guruh dastavval, tumanda aholi va qishloq xo'jaligini ro'yxatga olish tadbirini o'tkazishni tashkil etish bo'yicha shtab a'zolari bilan birgalikda hududdagi 51 ta "mahalla yettiligi" ishtirokida o'quv seminari tashkil etdi.



Unda 2026-yil 15-yanvardan 28-fevralga qadar o'tkaziladigan ro'yxatdan o'tkazish tadbirlari "mahalla yettiligi" ishtirokida uyma-uy yurib amalga oshirilishi va mazkur jarayonda muhim jihatlarga e'tibor qaratilishi lozimligi ta'kidlandi.

Shuningdek, ishchi guruhi tuman hokimligida tuzilgan aholini ro'yxatga olish shtabida bo'lib, ushbu tadbirga tayyorgarlik jarayonlari, shtab faoliyati va yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi. Ro'yxatga olish jarayonida 38 million aholining tarkibi va migratsiyasi, oilaviy holati, faoliyat turi, daromad manbalari to'g'risida yagona ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.



Mamlakatimizdagi qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish holati, chorva mollari va parrandalar soni aniqlanadi. Bu orqali qishloq xo'jaligiga yo'naltirilayotgan yillik byudjet mablag'larining samaradorligi, sohadagi xizmatlar hajmi va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun zarur ma'lumotlar yaratiladi.